

FE'L SO'Z TURKUMINING USLUBIYATI

Ostonova Gulsanam Sherzod qizi

Yo'ldosheva Nozima Quvondiq qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1- bosqich 103-104 guruh talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15491518>

Annotatsiya. Ushbu maqola "Fe'l" so'z turkumi haqida bo'lib, unda fe'lning asosiy belgilari, ma'nosi, shakllari va turlari haqida ma'lumot beriladi. Fe'l morfologiya bo'limidagi eng katta so'z turkumi hisoblanadi. Maqolada fe'lning zamon, shaxs-son; nisbat, ehtiyojsizlik, to'liqlik va turlanish kabi muhim jihatlari yoritiladi. Fe'lning gapdagi markaziy o'rni yoritilar ekan, voqelikni ifodalashdagi kuchi bilan birga uning sintaktik hamda leksikaviy jihatlari tushunishga undaydi.

Kalit so'zlar: Morfologiya, zamon shakli, shaxs-son shakli, nisbat, fe'lning harakat va holat fe'li, o'timli va o'timsiz fe'l, fe'lning vazifa shakllari, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.

Аннотация. Статья связана с категорией слов «Глагола» которая даёт информацию о основных знаках, значении, формах и типах глагола. Глагол самое большое слово в отделе морфологии. В статье подчеркиваются важные аспекты, такие как время, соотношение глагола, а также отношение склоня, а также включительно. Центральное место глагола, используя его, поощряет нас понимать внутренние механизмы человеческого вокаблности.

Ключевые слова: Морфология, современные формы, формы отдельных форм, включения, действия и состояния, задача формы, задачи глагола, вспомогательный глагол глагола.

Abstract. This article is about the verb word category, providing information on the main features, meanings, forms, and types of verbs. The verb is considered the largest word category in the morphology section. The article highlights important aspects of the verb such as tense, person-number, voice, necessity, transitivity, and conjugation. While the central role of the verb in a sentence is revealed, it also encourages understanding its syntactic and lexical aspects along with its power in expressing reality.

Keywords: Morphology, tense form, person-number form, voice, action and state verbs, transitive and intransitive verbs, functional forms of the verb, auxiliary verb, affix.

Özet: Bu makale "fiil" sözcük türü hakkında olup, fiilin temel özellikleri, anlamı, biçimleri ve türleri hakkında bilgi verir. Fiil, morfoloji bölümündeki en büyük sözcük türü olarak kabul edilir. Makalede zaman, kişi-sayı, çatılar, gereklilik, geçişlilik ve çekim gibi fiile ait önemli yönler açıklanır. Fiilin cümledeki merkezi rolü açıklanırken, aynı zamanda gerçekliği ifade etmedeki gücüyle birlikte sözdizimsel ve anlamsal yönlerini anlamaya teşvik eder.

Анаhtar келимелер: Морфологи, заман şekli, kişi-sayı şekli, çatı, eylem ve durum fiilleri, geçişli ve geçişsiz fiiller, fiilin işlevsel biçimleri, yardımcı fiil, ek.

Kirish.

Har bir tilning yuragi harakatdir. Harakat esa fe'l orqali tilga ko'chadi. So'zlar jim turadi, fe'l esa ularni harakatga keltiradi. U fikrga hayot bag'ishlaydi, vaqtni ifodalaydi, shaxsni aniqlaydi.

Agar ism narsa va hodisalarni nomlasa, fe'l ularga jon baxsh etadi. Fe'l bu tilning harakatdagi surati, inson tafakkurining harakatga aylangan ifodasidir. Shu sababli, fe'lni o'rganish nafaqat grammatik ko'nikma, balki tilning jonli mexanizmini anglash demakdir. Tilshunoslikda fe'l so'z turkumi o'zining grammatik shakllari va semantik imkoniyatlari bilan alohida o'rin egallaydi. Har qanday gapda harakat, holat yoki jarayonni bildiruvchi asosiy bo'g'in sifatida fe'l fikrning markaziga aylanadi.

Fe'l: Shaxs yoki narsaning harakat, holatini atab kelgan so'z turkumi bo'lib, nima qilmoq? nima bo'lmoq? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Fe'l nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi. **Harakat fe'llari:** Shaxs va narsaning jismoniy harakati natijasida ro'y bergan harakatni ifodalovchi fe'llar hisoblanadi. Masalan: sakramoq, gapirmoq, chizmoq, kulmoq, yurmoq.

Holat fe'llari: Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar. Masalan: o'ylamoq, xafa bo'lmoq, isimoq, erimoq.

O'timli va o'timsiz fe'llar:

O'timli fe'llar – tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana oladigan fe'llar: o'qimoq (kitobni o'qimoq), uzmoq (olmani uzmoq). O'timsiz fe'llar - tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana olmaydigan fe'llar: uxlamoq, jiringlamoq, yuvinmoq. O'timli fe'llarga majhul yoki o'zlik nisbati qo'shimchasi qo'shilsa, o'timli fe'l o'timsiz fe'lga aylanadi: yozmoq - o'timli fe'l, yozilmoq - o'timsiz fe'l. O'timsiz fe'llarga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilsa, o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanadi. Masalan: jiringlamoq - o'timsiz fe'l, jiringlatmoq - o'timli fe'l. Qo'ng'iroq jiringladi - qo'ng'iroqni jiringlatdi.

Nisbat qo'shimchalari fe'llarning o'timli-o'timsizligiga ta'sir qilishi uchun majhul yoki o'zlik nisbat qo'shimchasi o'timli fe'llarga; orttirma nisbat qo'shimchasi esa o'timsiz fe'llarga qo'shilishi kerak.

Fe'l nisbatlari

Nisbat - bajaruvchining harakat -holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakli. Fe'ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllariga nisbat shakllari, shunday shakllar tizimiga esa nisbat kategoriyasi deyiladi.

Fe'l 5 ta nisbat shakliga ega: 1. Aniq nisbat. 2. O'zlik nisbat. 3. Majhul nisbat. 4. Orttirma nisbat. 5. Birgalik nisbat.

Aniq nisbat - bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli. Aniq nisbat bosh nisbat deb ham ataladi va harakat-holatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi. Masalan: Aziza darsini qildi.

O'zlik nisbat - bajaruvchining o'z ustida amalga oshiradigan harakat va holatni ifodalaydigan fe'l shakli.

Qo'shimchasi: -(i)n, -(i)l. Masalan: Aziza yuvindi.

O'zlik nisbati fe'l asosiga qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilinadi: taradi - tarandi, kiydi - kiyindi. Ayrim fe'llardan o'zlik nisbat shaklini yasab bo'lmaydi. Masalan, yayramoq, sayramoq, uxlamoq, baqirmoq.

Majhul nisbat - bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli. Qo'shimchalari: -(i)n, -(i)l.

Majhul nisbat fe'li harakat bajaruvchisining noaniqligini ifodalaydi, shuning uchun majhul nisbatda asosiy ma'no ish-harakatning bajaruvchisi ham emas, balki nima qilinganiga (obyektiga) qaratiladi. Masalan: Mahallamizda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Ayrim fe'llarda o'zlik nisbati -n(-in) qo'shimchasi orqali, majhul nisbati esa -l(-il) qo'shimchasi orqali hosil qilinadi.

Bahodir jangchi qonga bo'yaldi bo'lsa, o'zlik nisbatdagi:

Jadval turli ranglarda bo'yaldi bo'lsa, majhul nisbatdagi gap hisoblanadi. O'rtirma nisbat - ta'sir ostida boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli. Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatga da'vat qilingan shaxs ma'nosini bildiradi: qoldirdi, kirgizdi, o'qittirdi, soldirdi, uxlatdi. Qo'shimchalari: -t, -dir, -tir, -giz, -kiz, -qiz, -g'iz, -kaz, -qaz, -ir, -ar, -iz. Masalan: Alisher uyni qurdirdi.

Birgalik nisbat - birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli. Qo'shimchalari: -sh, -ish.

Masalan: O'quvchilar hikoyani miriqib tinglashdi.

Fe'lning vazifa shakllari

Fe'lning turli gap bo'laklari vazifasida kelishi uchun xoslangan shakllari fe'lning vazifa shakllari deyiladi. Ular 4 ta guruhga bo'linadi.

1) Sof fe'l shakli - fe'lni gapda kesim vazifasini bajarishga xoslangan shakli. Sof fe'l shakli zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ko'rsata oladi. Masalan: Azizim, qizingizning baxtini o'zgalarning eshigidan qidirmang.

2) Harakat nomi - fe'lning otga xoslangan shakli. Qo'shimchalari: -sh, -ish, -v, -uv, -moq, -mak. Masalan: o'qish, yozuv, ko'rmoq, gapirish.

Harakat nomi egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini olgani sababli otga xos xususiyatlarga ega.

Egalik: Ko'rinishing yaxshi.

Kelishik: Bilim o'qishning mevasidir.

Ko'plik: Vaqtni samarasiz tortishuvlarga sarflamaylik.

3) Sifatdosh - fe'lning sifatga xoslangan shakli.

Qo'shimchalari: -gan (-kan, -qan), -adigan, -ydigan, -ayotgan, -r (-ar).

Sifatdosh shaxs va narsaning uch zamondagi o'zgara oladigan belgisini ifodalaydi.

Sifatdoshlar fe'lga xos bo'lgan zamon, bo'lishli- bo'lishsizlik, nisbat ma'nolarini ifodalaydi. O'tgan zamon sifatdoshi (-gan, -kan, -qan): o'qigan, ekan, oqqan.

Hozirgi zamon sifatdoshi (-yotgan, -ayotgan): ishlayotgan, yozayotgan.

Kelasi zamon sifatdoshi (-adigan, -r, -ar): keladigan, ishlar, qaytar, ishlaydigan.

4) Ravishdosh - fe'lning ravishga xoslangan shakli. Ravishdosh fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildiradi. Masalan: shoshib keldi - qanday keldi ?

Ravishdosh - asos negizi fe'l bo'lgan va fe'lga -b (-ib), -a (-y), -gach (-kach, -qach), -guncha (-quncha, -kuncha), -gani (-qani, -kani) qo'shimchalari qo'shilishi natijasida hosil qilingan shaklidir: shoshib kelmoq, kulib gapirmoq, o'ylab javob bermoq.

Fe'ning munosabat shakllari

Fe'ning munosabat shakllari - bu harakat xabarchilari bo'lib, ular sof fe'ning odatiy shaxs-son va zamon ko'rsatkichlari chegarasidan chiqib, harakatni predmet sifatida belgilash, holatga aylantirish yoki harakat o'zgarishining maromini ifodalash uchun xizmat qiladigan morfosintaktik ko'rinishlardir. Fe'llarning zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Munosabat shakllarining ikkinchi nomi sintaktik shakl yasovchilar deb yuritiladi. Bu shakllarga ega har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma'no va shakllardan xoli bo'lgan fe'l asosi fe'ning noaniq shakli hisoblanadi, bu shakl -moq qo'shimchasi yordamida ifodalanadi.

Fe'llarning zamon

Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning qaysi vaqtda sodir bo'lishini bildiruvchi shakllar fe'ning zamon shakllari hisoblanadi. Fe'l uchta zamon shakllariga ega: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

O'tgan zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo'lganini bildiradi. Masalan: Men uyga keldim (allaqachon bajarib bo'lingan ish harakati). Hozirgi zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berayotganini ifodalaydi. Bu zamon shakllari fe'l asosiga -yap, -moqda, -(a)ytib, qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: Men uyga ketyabman (hozir bajarilayotgan ish harakati). Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradi. Masalan: Men uyga ketmoqchiman (endi bajarilishi kerak bo'lgan ish harakati).

Mayl shakllari

Fe'l asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq- istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari mayl shakllari deb ataladi.

Fe'llarning 4 ta mayl shakli mavjud:

1. Xabar mayli - bu fe'ning harakat yoki holatni real, aniq, haqiqatga mos ravishda bildiradigan mayl shakli. Bu mayl fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali shakllanadi. Masalan: bola chaqqonlik bilan o'zini suvga otdi.

2. Buyruq-istak mayli - harakat va holatni bajarish yoki bajarilmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shakli. Buyruq-istak mayli shakllari fe'l asoslariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: -a(y), -(a)yin, -gin, -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar. Masalan: Kel, do'stim, ko'nglimni senga ochay.

3. Shart mayli - boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat hamda holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli va u -sa qo'shimchasi yordamida yasaladi. Masalan: Qaniydi, ertaga tog'ga chiqsak.

4. Maqsad mayli - harakatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi. Fe'l asosiga -moqchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: Bugun bizlarnikiga amamlar kelmoqchi.

Shaxs-son shakllari

Shaxs-son shakllari fe'ldan ifodalangan harakat va holatni bajaruvchi shaxshini bildirib, fe'lni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakllar hisoblanadi. Fe'llarning I va II shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. III shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan: boraman, o'qiyman, kelasiz, ishladim, o'ynading, o'ylasang.

Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy fe'llarga bo'linadi.

Sodda fe'l - o'qidi, kiyinmoqchi, ichyapti, o'tirdi.

Qo'shma fe'l - borib keldi, olib berdi, oshib tushdi

Juft fe'l - aytdi-qo'ydi, yozdi-oldi.

Takroriy fe'l - yozdi-yozdi, kuldi-kuldi, yurdi-yurdi.

Fe'l yasovchi qo'shimchalar

Fe'llar ko'pincha boshqa so'z turkumlariga qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi. Masalan: oq+la=oqla, qora+y=qoray - sifatdan, ish+la=ishla, yosh+a=yasha, son+a=sana - otdan, taq+illa=taqilla, shildir+la=shildirla - taqlid so'zdan yasalgan.

Fe'l yasalishining usullari:

1. Affiksali usul (qo'shimchalar orqali). Bu – eng keng tarqalgan yo'l. Yuqorida keltirilgan qo'shimchalar bu usulga kiradi.

B) Kompozitsiya (birikma orqali). Ikki yoki undan ortiq so'z birikib yangi fe'l hosil qiladi: suv ichmoq, qo'l urmoq, ko'z yugurtirmoq.

(Haqiqiy birikma fe'l bo'lishi ham mumkin, lekin ba'zilar leksiklashib ketadi: ko'z yugurtirmoq – "tez o'qib chiqmoq").

C) Konversiya (so'z turkumi o'zgaradi, shakli o'zgarmaydi. Yugur! – bu yerda "yugur" fe'l, lekin asosiy shakli ot bo'lishi ham mumkin (yugur → yugurish). So'z otdan fe'lga o'tdi.

D) Reduplikatsiya (takrorlash orqali). Ba'zi hollarda harakatni takroriy yoki kuchli ko'rsatish uchun: ur-urmoq, qoch-qochmoq. Bu ko'proq emotsional yoki og'zaki uslubda qo'llanadi.

Xulosa

Fe'l so'z turkumi - til tizimining markaziy va dinamik unsuri bo'lib, u harakat, holat va jarayonlarni ifodalash orqali nutqning semantik va grammatik tuzilishiga asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Harakatning zamonda, shaxsda, uslubda va ifoda ohangida ko'rinishi fe'lning chuqur grammatik va semantik qatlamlarga ega ekanligini anglatadi. Ushbu maqolada fe'lga oid nazariy qarashlar, uning turlari va grammatik xususiyatlari chuqur tahlil qilinib, o'quvchilar tilshunoslikdagi muhim nazariy tushunchalarni o'zlashtirishlariga imkon yaratildi. Fe'lni o'rganish tilning asosiy harakat kuchini anglash, uning ichki dinamikasini his etish va ifoda madaniyatini oshirish yo'lida muhim qadamlardan biridir.

REFERENCES

1. Suyunova M. "Hozirgi o'zbek adabiy tili morfologiyasi", Toshkent, O'qituvchi, 2017.
2. T.Choriyev, N.Safarova, Sh.Istamova "O'zbek tili", Toshkent 2008, 164-166 betlar.
3. M.T.Irisqulov "Tilshunoslikka kirish", 82-bet.

4. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", Toshkent 2008, 170-172 betlar.
5. www.oefen.uz, "Fe'l uslubi".
6. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent 2019, 237-245 betlar.